


Yondosh mavzu:
sog'lom turmush tarzi.

To'plam,
to'plam elementlari.



1. Har bir qatordagi obyektlarga umumiy nom bering.



2. Ko'pincha umumlashtirilgan obyektlar maxsus nomga ega bo'ladi. Masalan, uy hayvonlari guruhi poda deyiladi. Ushbu obyektlar guruhi qanday umumiy nom bilan atalishini bilasizmi?

- a) qo'ylar guruhi;
- b) otlar guruhi;
- d) birin-ketin yurgan tuyalar guruhi;
- e) hasharotlar guruhi: asalarilar yoki arilar;
- f) qushlar guruhi;
- g) o'yinchilar guruhi, masalan, futbol yoki basketbol o'yinida;
- h) birga o'sadigan daraxtlar guruhi.



Har bir guruh nomini eslab qolishga zarurat bo'lmisligi uchun, ularni **to'plam** deb atashga kelishib olingan: qushlar to'plami, sonlar to'plami, shakllar to'plami.

To'plamdagi har bir obyekt **to'planning elementi** deb ataladi.

To'plam, odatda, lotin alifbosining biror bosh harfi bilan belgilanadi.

To'plamni turli usullar bilan yozish mumkin:


Barcha elementlarini ko'rsatish bilan:

$F = \{\text{To'g'ri burchakli parallelepiped yoki kuboid, konus, prizma, piramida, kub, silindr}\}.$

Umumiy alomatlarini tavsiflash bilan:

F – hajmli jismlar to'plami.

Rasmlarini chizib ko'rsatish bilan:




3. To'plamlarni ularning elementlarini sanab o'tish bilan yozing:

- A – o'zbek alifbosidagi unli harflar to'plami;
- B – raqamlar to'plami;
- C – ikki xonali yaxlit sonlar to'plami;
- D – yassi to'rtburchaklar to'plami.




4. Quyidagilarni yozing:

- U – ushbu kubning uchlari to'plami;
- Q – ushbu kubning qirralari to'plami;
- Y – ushbu kubning yoqlari to'plami.



5. Quyida tasvirlangan ulushlar to'plamini yozing.





6. Madina o'zi uchun kun tartibi tuzdi. U soat 7:00 da uyqudan uyg'onadi, maktabda dars 8:30 da boshlanadi. Soat 13:40 da darslar tugab, u maktabdan uyga qaytadi. Soat 16:25 da Madina musiqa maktabidagi mashg'ulotlariga boradi va 19:55 da musiqa maktabidan uyiga qaytadi. U soat 22:00 da uyquga yotadi. Savollarga javob bering:

- a) Madina 1 sutkada necha soat uxlaydi?
- b) Madina necha soat vaqtini maktabda o'tkazadi?
- d) Madina musiqa maktabidagi mashg'ulotlarga 1 kunda necha soat sarflaydi?



7. Tenglamalarni tekshirishlar bilan yeching.

$$12 \cdot (x + 24) = 732$$

$$300 - t \cdot 5 = 180$$



8. Umida birinchi oyda ertalabki badantarbiya mashqlarini kuniga 30 minutdan bajardi. Ikkinchi oyda u mashqlar davomiyligini 15 minutga, uchinchi oyda esa yana 7 minutga oshirdi. Uchinchi oyda uning ertalabki mashqlari necha minut davom etgan? Bu birinchi oydagiga nisbatan qanchaga oshgan?



9. Nechta Ikki xonali son 1 raqamini o'z ichiga oladi? 2 raqamini-chi? 0 raqamini-chi?



10. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang. Ushbu to'plam qanday elementlardan iborat?

$$2520 : 3 : 70 + (100 - 8 \cdot 12) \cdot 7$$

A 28

J 40

K 4

P 12

S 63

I 840

M 64

E 96



11. Bobo va buvilaringiz va barcha oila a'zolaringizdan iborat to'plamni yozing. Bu to'plamda necha element hosil bo'ldi?